O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

“PROFI UNIVERSITY” NODAVLAT OLIY TA’LIM MUASSASASI

O‘ROZBOYEVA DILNOZA ALIMBOY QIZI

ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARDA SINTAKTIK TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION METODIKASI

METODIK QO‘LLANMA

Toshkent – 2026
“Science and Innovation” nashriyoti

UO‘K: 372.881.161.3
KBK: 74.268.1 O‘zb
O 75

O‘rozboyeva Dilnoza Alimboy qizi. Ona tili darslarida o‘quvchilarda sintaktik tushunchalarni shakllantirishning innovatsion metodikasi. Metodik qo‘llanma. – Toshkent: “Science and Innovation” nashriyoti, 2026. – 50 b.

Taqrizchilar:

G.A. Mamatova – Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dotsent “Profi University” “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi

S**.B. Allayarova** – Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Chirchiq davlat pedagogika institute

S.N. Jamoldinova – Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Chirchiq Davlat pedagogika instituti

© Mazkur metodik qo‘llanma “PROFI UNIVERSITY” nodavlat oliy ta’lim muassasasining 2026-yil 7-sentabrdagi 1-sonli Ilmiy Kengash qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

ISBN 978-9910-338-12-0

© O‘rozboyeva Dilnoza Alimboy qizi, 2026
© “Science and Innovation” nashriyoti, 2026

MUNDARIJA

KIRISH …….. 4

1-§. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarda sintaktik tushunchalarni shakllantirishning shakl, usul va vositalari ……. 6

2-§. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sintaktik tushunchalarni shakllantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish metodikasi ……..... 16

3-§. O‘quvchilarda sintaktik tushunchalarni shakllantirishda STEAM texnologiyalarini tatbiq etish ……... 26

XULOSA …… 45

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI …… 47

KIRISH

Jahonda ona tili darslarida o‘quvchilarda sintaktik tushunchalarni shakllantirish hamda o‘quvchilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish jarayoniga o‘ziga xos talablarni qo‘ymoqda. XXI asrda ta’limga asosiy e’tibor qaratib kelayotgan, Singapur, Xitoy, Angliya, Finlyandiya, Germaniya, Janubiy Koreya kabi ta’lim tizimi ilg‘or mamlakatlar o‘quvchilarida 4K tamoyilini o‘z ichiga olgan muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik, ijtimoiylashuv, kommunikativlik kabi ko‘nikmalarga alohida urg‘u berib1, kichik maktab yoshi o‘quvchilarning til hodisalariga nisbatan o‘ta sezgirligi, nutqiy va kommunikativ ko‘nikmalarni o‘zlashtirishda qulay davr ekanligini inobatga olgan holda ma’naviy-madaniy rivojlantirishga xizmat qiladigan innovatsion o‘qitish texnologiyalarini tatbiq etib kelmoqdalar.

Jahon ta’lim amaliyotida boshlang‘ich sinflardan boshlab o‘quvchilarning sintaktik til birliklari xususiyatini anglash va idrok etishning nazariy asoslari ilmiy, lingvometodik jihatdan tadqiq etilmoqda. Finlandiyada ta’lim tizimida sintaksisni o‘rgatishda *quruq qoidalar yodlatishga emas, balki tilni amaliy va funksional qo‘llash hamda tilga oid sezgirlikni (kielitietoisuus) rivojlantirishni* kuchaytirish, Yaponiyada sintaktik til birliklarini o‘rgatishda *amaliy nutqqa, matn yaratish va muloqot madaniyatiga* asoslanish, Koreyada *kontekst va muloqotga asoslangan yondashuvni* joriy qilish yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sintaktik tushunchalarni shakllantirishni innovatsion yondashuv asosida takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-metodik ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda yangi O‘zbekistonni va uchinchi Renessans poydevorini barpo etish borasida maktab ta’limi tizimida amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlar va islohotlar samaradorligini ta’minlash “amaldagi o‘qitish metodikalarini takomillashtirish va

yangi metodikalarni tadqiq qilish” bilan bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasida davlat tili bo‘lgan o‘zbek tilining dunyoviy miqyosdagi o‘rnini mustahkamlash, umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari va o‘quvchilar savodxonligini takomillashtirish, ta’limning keyingi bosqichlarida davlat tilida ta’limni davom ettirish uchun keng imkoniyatlar eshigini ochib beradi.

Maktabda ona tili ta’limida sintaksisni o‘rganishning asosiy qiyinchiligi shundaki, nafaqat boshlang‘ich sinf balki, yuqori sinf o‘quvchilari ham har doim ham morfologik tushunchalarni sintaktik tushunchalardan ajrata olmaydilar. Bu qiyinchiliklarni oldini olishda o‘qituvchi - grammatik tushunchalarni o‘rgatishda o‘quvchilar ularni chalkashtirib yubormasliklari uchun to‘g‘ri yondashuvni topishi lozim. Bu yondashuvlardan biri sintaktik tushunchalarni o‘rgatish jarayonida uning morfologik xususiyatlarini bog‘liqlikda o‘rgatishdir. Afsuski, bu masalada hozirgi kungacha ma’lum bir amaliy tadqiqot olib borilmagan. Shu kungacha o‘qituvchilarimiz uchun sintaktik bilimlarni berishda morfologik bilimlar bilan bog‘liklikda o‘rgatish metodikasi mavjud emas. Shu jihatdan bizning tadqiqotimiz dolzarb ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha

chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.[1]

1-§. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarda sintaktik tushunchalarni shakllantirishning shakl, usul va vositalari

Til odamlarning asosiy muloqot vositasi sifatida ijtimoiy madaniyatning zaruriy qismi, atrofimizdagi dunyoni bilishning muhim vositasidir. O‘quvchilarda bilish motivatsiyasini anglash, ularning til va lingvistik kompetensiyasini shakllantirish, kommunikativ ko‘nikmalarini takomillashtirish uchun til grammatikasini o‘rganish zarur.

Maktabda ona tilini o‘qitishda kognitiv yondashuv *onglilik va faollik, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi ta’lim, tizimlilik va izchillik, nazariya va amaliyotning o‘zaro bog‘liqligi* tamoyillariga asoslanadi. Onglilik tamoyili bejizga birinchi o‘rinda keltirilmagan, chunki aynan o‘qitishda onglilik til hodisalarining mohiyatini, ularning til tizimidagi o‘zaro bog‘liqligini, nutqda, aniqrog‘i, o‘z so‘zlashuvida va matnda qanday ishlashini tushunishga olib keladi. Onglilik, faollik va rivojlanish - kognitiv o‘qitishning asosiy “tayanchlari” bo‘lib, ular asosida ona tilining butun uslubiy tizimi qurilishi kerak

XX asrda kognitiv tilshunoslikning paydo bo‘lishi gumanitar fanlar uchun inqilobiy ahamiyatga ega bo‘ldi: maqsad va ma’nolar, o‘rganish va tavsiflash obyektlari, predmetlari, bilish usullari, lingvistik tadqiqotlar yo‘nalishi va tamoyillari o‘zgardi.

Kognitiv tilshunoslikda ko‘rib chiqilayotgan bilimlar tizimining yangi mazmuni va xususiyati natijasida ona tilini o‘qitish metodikasi ham tubdan yangi yo‘nalish oldi. Nutqni o‘qitishda lingvokognitiv yondashuvni shakllantirish yo‘llarini izlash, badiiy asarlarni idrok etishning psixologik jarayonlarini hisobga olgan holda til, nutq,

1https://www.lex.uz/uz/

kommunikativ shaxsni takomillashtirish muammosiga murojaat qilingan qator tadqiqotlar amalga oshirildi.

Ta’limdagi kognitiv yondashuvning mohiyati - nutqda til birliklari qanday va nima maqsadda qo‘llanilishini tushunishni ta’minlash, tilga ongli munosabatni rivojlantirishdan iborat. Ona tili darsida she’riy matnga murojaat qilganda, o‘qituvchi nafaqat matnni o‘qish va tahlil qilishni, balki til birliklarini aniqlash, ularning o‘zaro bog‘liqligi, vazifalari, rolini tushunishni ham taklif etadi.

Ta’limdagi kognitiv yondashuvni quyidagi yo‘nalishlarga ajratish mumkin: *semantik, funksional, kommunikativ, tizimli.*

Biz tadqiqotimizni til hodisasini, ya’ni sintaktik tushunchalarni o‘rganishning kognitiv jihatlarini ko‘rib chiqishga bag‘ishladik. Izlanishlarimizda til materialining (sintaktik og‘zaki belgi) dunyoni bilish, idrok etish, fikrlash jarayonlari bilan bog‘liqligiga qiziqdik.

Biroq zamonaviy metodika fanida nutqni yaratish va idrok etishga kognitiv yondashuv asosidagi mexanizmlar haqidagi kognitiv fanlardagi yutuqlar yetarli darajada faol qo‘llanilmayapti. Shu munosabat bilan tadqiqotimizning asosiy g‘oyasi psixolingvistikaning shaxsning kognitiv makoni kontseptlar asosida shakllanishi haqidagi fikridir. Bu holat voqelikni hissiy-sezgi asosida idrok etish asosida sintaksisni o‘rgatish, so‘ngra olingan ma’lumotni obraz-tasavvurlar va kontseptni so‘z bilan ifodalash orqali mustahkamlash va kengaytirish ishlarini taqozo etadi.

Tilshunoslik, psixolingvistika va metodika fanining yuqorida keltirilgan qarashlariga asoslanib, sintaksisni o‘rgatish muammosini o‘zaro bog‘liq bo‘lgan uchta tarkibiy qism: dunyoning subyektiv manzarasi, uni ichki nutqda aks ettirish, dunyoning manzarasini tashqi nutqda ifodalash orqali hal etamiz. Bizning yondashuvimiz sintaksisni o‘rgatish jarayonida boshlang‘ich sinfdagi o‘quvchi shaxsining o‘ziga xos xususiyatlarini, uning dunyoqarashi va ichki so‘z boyligini hisobga oladi.

Ona tilini o‘qitishda kognitiv yo‘nalishning asosiy usullari va uslublari rivojlantiruvchi, muammoli va kommunikativ usullar bo‘lishi mumkin. Rivojlantiruvchi ta’lim muammoli ta’limga asoslanadi, shuning uchun asosiy usullar muammoli savol, muammoli vaziyat yaratish, izlanish (bilish) vazifalarini yechish, tadqiqot usulidan iborat bo‘ladi.

Binobarin, tadqiqotimiz markazida, *bir tomondan,* subyektiv obrazlar, ma’nolar va dunyoning lingvistik manzarasi tizimining tashuvchisi bo‘lgan o‘quvchi shaxsi, *ikkinchi tomondan,* o‘quvchining obrazli tafakkurini so‘z bilan ifodalash vositasi sifatida qo‘shma ergash gap turadi.

Tadqiqotimizda lingvokognitiv yondashuv asosida sintaksisini o‘rgatish metodikasini yaratishda quyidagi omillarga tayandik:

- o‘quvchining shaxsiy dunyoqarashini kengaytirish, ichki nutqi, obraz-tasavvurlar, kontsept-tushunchalar, kontsept-ssenariylar bilan boyitish zarurligi;

- sintaksisini o‘rgatish bo‘yicha bosqichma-bosqich ish jarayonida o‘quvchilarning obrazli tafakkuriga, ularning ichki nutqiga, shuningdek, bilimlarni ifodalashning og‘zaki shakllariga murojaat qilishning samaradorligi.

O‘qituvchining vazifasi kognitiv yondashuv asosida o‘qitish jarayonida til tajribasini shakllantirish modelini yaratishdan iborat. Ta’lim jarayonida bola til materialini mustaqil tushunish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar haqida tasavvurga ega bo‘ladi. Shunday qilib, o‘quvchida yangi sharoitlarda kognitiv faoliyatni amalga oshirishga imkon beruvchi kognitiv strategiyalarni tanlashda o‘quvchining mustaqilligi - lingvistik va kommunikativ kognitiv vazifalarni yechish jarayonida namoyon bo‘ladi. Bunday vazifalarga muammoli vaziyatlarni yaratishga qaratilgan mashqlar mos keladi (*masalan, gapdagi yangi mavzu undalmaning belgilarini aniqlash, berilgan ta’rif asosida uning vazifasini izohlash*). Bunday vazifalar

o‘quvchilarning to‘plangan tajribasini faollashtiradi, til hodisalarini taqqoslash va tahlil qilishga undaydi.

Ona tili darslarida o‘quvchilarning til bilimlari va ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Shuningdek, ona tili darslarida matn bilan kompleks ishlash ham samarali o‘quv vazifalaridan hisoblanadi. Badiiy matn bilan ishlash jarayonida o‘quvchi sintaktik til birliklarini qo‘llash me’yorini, ularning og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanish misollarini va usullarini ko‘z oldiga keltiradi. O‘quvchilar tomonidan ilgari o‘rganilgan badiiy asar parchalari asosida o‘z matnlarini yaratishga qaratilgan mashqlar o‘quvchilarga ilgari o‘zlashtirilgan sintaktik materialdan samarali va ongli ravishda foydalanish imkonini beradi.

Kognitiv yondashuv asosida o‘qitish jarayonida til tajribasini shakllantirish kelgusidagi xatolarning oldini olishga xizmat qiladi. Masalan, o‘quvchilarda ma’no, doimiy va o‘zgarmas morfologik belgilari haqidagi bilimlar mustahkamlangan va o‘zlashtirilgan bo‘lsa, ular ushbu morfologik tahlilga tayangan holda gapdagi so‘z turkumlarining sintaktik vazifasini aniqlash va farqlashda xatoliklarning oldini oladi.

Shunday qilib, ona tilini o‘qitishning zamonaviy metodikasida turli yondashuvlar orasida, bizning fikrimizcha, chuqur o‘rganilmagan kognitiv yondashuv ustuvor yondashuv sifatida ajralib turadi. Ushbu yondashuv til bilimlarini shakllantirishga xizmat qiladi, chunki u o‘quvchilarning o‘quv materialini ongli ravishda o‘zlashtirishiga asoslanadi. Ona tili haqidagi umumiy nazariy bilimlar asosida o‘quvchida nazariy tushunchalar va amaliy ko‘nikmalar shakllanadi. Og‘zaki va yozma nutqda tilni ongli ravishda qo‘llash bo‘yicha shakllangan tajriba o‘quvchilarga o‘rta maktabda ona tilini o‘rganish jarayonida yuzaga keladigan turli qiyinchiliklarni samarali yengib o‘tish imkonini beradi.

Boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘rgatishning asosiy maqsadi nutqni rivojlantirish va bilish motivatsiyasini shakllantirishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun “Sintaksis” bo‘limi bilan tanishish asosiy hisoblanadi, chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutqning to‘g‘ri sintaktik tuzilishi rivojlanadi, nutq ko‘nikma va malakalari shakllanadi, bolalar gap tuzish va gapdagi so‘zlarni bog‘lash qoidalari bilan tanishadilar.

Boshlang‘ich sinflarda til o‘rganishning asosiy vazifalaridan biri boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida gaplardan foydalangan holda o‘z fikrini ifoda etish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarga tilning asosiy birligi bo‘lgan gapdan ongli ravishda foydalanishni o‘rgatish, ularda nutq oqimini tugallangan tarkibiy-ma’no birliklariga bo‘lish, fikr mavzusini ajratib olish, fikrni tarkibiy va intonatsion jihatdan rasmiylashtirish, so‘zlarni gaplarga bog‘lash ko‘nikmalarini shakllantirish demakdir. O‘zlashtirish morfologiya, leksika, fonetika va orfografiya sintaktik asosda olib boriladi, demak, ona tilini o‘rganishda asosiy o‘rinni aynan gap ustida ishlash egallaydi.

Boshlang‘ich sinflarda sintaksisni o‘rganish o‘quvchilarning til savodxonligini shakllantirishning eng muhim bosqichidir. Sintaksis tilshunoslikning bo‘limi sifatida gapning tuzilishini, so‘zlarning birikish qonuniyatlarini va ularning nutq aktidagi o‘zaro ta’sirini o‘rganadi. Sintaktik asoslarni o‘zlashtirish bolalarga gap qanday tuzilishini, uning ma’nosi so‘zlar tartibi va intonatsiyaga qarab qanday o‘zgarishini hamda turli so‘z turkumlari qanday qilib yagona gapni hosil qilishini tushunishga yordam beradi.

Sintaksis til o‘rgatishning bir qancha muhim jihatlarini qamrab oladi va bir nechta ta’rifga ega.

- birinchidan, sintaksis - bu so‘zlarning tartibi va ularning birikmalarini belgilaydigan gap tuzilishi.

- ikkinchidan, sintaksis - bu tilning so‘zlar o‘rtasidagi muvofiqlikni o‘rganuvchi bo‘limi, masalan, otning sifatdosh bilan qanday mos kelishini o‘rganadi.

- uchinchidan, sintaksis - bu sodda gaplardan tashqari, masalan, ergash va qo‘shma gaplarni ham o‘z ichiga olgan til konstruksiyalarining yig‘indisidir.

Sintaksis so‘zlar tartibini o‘rganish, ular o‘rtasidagi muvofiqlikni ta’minlash va sodda gaplardan tortib murakkab va qo‘shma gaplargacha bo‘lgan turli xil konstruksiyalarni tushunishni o‘z ichiga oladi. Sintaktik ishlarning muhim elementi so‘z va so‘z birikmalarini o‘rganishdan iborat. So‘zlar tilning mustaqil birliklari bo‘lib, so‘z birikmalari ularning grammatik o‘zaro ta’sirini ifodalaydi. So‘z birikmalarini tuzish bo‘yicha amaliy mashqlar bolalarga turli so‘zlarning qanday qilib ma’no jihatdan guruhlarga birlashishini tushunishga, gap tuzish uchun asos yaratishga imkon beradi.

Boshlang‘ich sinflardan boshlab sintaksis va punktuatsiyani samarali o‘rgatish o‘quvchilarda tilga ongli munosabatni bosqichma-bosqich shakllantirish, tahlil qilish va mustaqil ravishda so‘z birikmalarini tuzish ko‘nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Bu grammatika, imlo va yozma nutqni yanada o‘rganish uchun mustahkam poydevor yaratadi. 1-4-sinf o‘quvchilarida sintaktik tushunchalarini shakllantirishda tilning boshqa bo‘limlari bilan, ayniqsa morfologiya bilan o‘zaro bog‘liqlikni ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Bu esa o‘quvchilarga tilni yagona tizim sifatida tushunishga yordam beradi, bunda sintaksis fonetika, lug‘at va imlo bilan chambarchas bog‘lanadi.

Kommunikativ-faoliyatli yondashuv. Mazkur yondashuvining muhim elementi o‘quv faolligining turli shakllaridan - loyiha, o‘yin, tadqiqot va ijodiy faoliyatdan foydalanish hisoblanadi. Bunday shakllar o‘quvchilarga shunchaki topshiriqlarni bajarish emas, balki

tilni o‘zaro muloqot, o‘zini namoyon etish va dunyoni bilish vositasi sifatida qo‘llashga yordam beradi. Shuningdek, refleksiya alohida o‘rin tutadi: o‘quvchilar o‘z yutuqlarini tahlil qiladilar, qiyinchiliklarni aniqlaydilar, ularni bartaraf etish yo‘llarini izlaydilar. Bu o‘quv faoliyatiga ongli munosabatni shakllantirishga yordam beradi, natija uchun mas’uliyatni rivojlantiradi va ichki motivatsiyani qo‘llab-quvvatlaydi.

Ushbu yondashuvni amaliyotga tatbiq etish ijobiy natijalarni ko‘rsatmoqda: o‘quvchilar og‘zaki va yozma nutqda o‘ziga ishonch hosil qilmoqda, gap tuzilishini yaxshiroq o‘zlashtirmoqda va hamkorlik ko‘nikmalariga ega bo‘lmoqda. Biroq uni samarali amalga oshirish uchun zamonaviy o‘qitish usullarini egallagan, yuqori malakali o‘qituvchilar talab etiladi. Shuningdek, bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish, kamroq faol o‘quvchilarga muloqotga kirishishda yordam berish zarur.

Sintaksisini o‘rganishda tizimli yondashuv. Ona tili sintaksisini o‘rganishning ahamiyati uning tizimli yondashuvidadir. Maktab sintaksisi kursining tizimliligi asosiy ilmiy tushunchalarni o‘zlashtirishni ta’minlaydi: sintaksis birliklari (so‘z birikmasi, gap), ularning tuzilishi, sintaktik munosabatlari va sintaktik aloqalari.

Sintaktik tushunchalarni o‘rganuvchi ona tili darslarini tizimli yondashuv asosida tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Til va nutq tushunchalari, qonuniyatlari, qoidalarini o‘zlashtirish va tegishli ko‘nikmalarni shakllantirish motivatsiya va o‘quv vazifasini qo‘yish bosqichidan boshlab, uni bevosita hal etish, harakat usulini tushunish va olingan bilimlarni keyinchalik qo‘llash, o‘z harakatlari va bu harakatlar natijalarini nazorat qilish ko‘nikmalariga qadar davom etadi. Tizimli yondashuv asosida “Gap” mazmuniy blokiga quyidagi bo‘limlarni

1) nutqda gaplarni shakllantirish.
2) gap fikrni ifodalash vositasi sifatida.

3) og‘zaki va yozma farqlash.

4) so‘z birikmalarni ajratib ko‘rsatish.

5) gaplarni shakllantirish va tuzish.

Tizimli-faoliyatli yondashuvning kommunikativ yo‘naltirilganligi gap tuzish va uni nutqda qo‘llashni bevosita o‘rgatishni taqozo etadi. Ushbu ko‘nikmaning shakllanishi o‘quvchilar nutqida tushunmovchiliklar yuzaga kelishiga sabab bo‘ladigan kamchilik va xatolarni aniqlash va muhokama qilish fonida amalga oshiriladi. O‘qituvchi bolalarni quyidagi savollar bilan suhbatga olib boradi: *“Sizni boshqalar aniq tushunishini xohlaysizmi?, Tabriknomangizda xatolar qilmaslikni xohlaysizmi?, O‘z fikrlaringiz va his-tuyg‘ularingizni aniq ifoda etmoqchimisiz?”.*

Ona tilini o‘qitishda funksional yondashuv. Bu yondashuv doirasida sintaktik tushunchalar shakllantiriladi. Bu, o‘z navbatida, nafaqat asosiy kommunikativ birlik - gapning rasmiy xususiyatlari, balki uning semantikasi va gapning axborot tashkil etilishi haqidagi nazariy ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan lingvistik nazariya mazmunini yangilashga turtki bo‘ladi. Shuning uchun ham sintaksisni o‘rganish zamonaviy ona tilida muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, an’anaviy usullar va interaktiv texnologiyalarni uyg‘unlashtirish, raqamli resurslardan foydalanish va ta’limni individuallashtirish sintaktik ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Kommunikativ-faoliyatli yondashuv nafaqat til savodxonligini shakllantirish, balki o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini, mustaqilligi va mas’uliyatini rivojlantirish imkonini beradi.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida sintaktik tushunchalarni shakllantirish — o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish, fikrni to‘g‘ri tuzish hamda ongli anglash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Bu jarayon quyidagi tamoyillariga asoslanadi.

Soddadan murakkabga tamoyili - boshlang‘ich sinflarda eng asosiy tamoyil hisoblanadi. Bu tamoyil o‘qituvchini har bir o‘quvchining rivojlanish darajasi va individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda materialni tizimli va izchil bayon etishga yo‘naltiradi, barcha o‘quvchilar uchun bilimlarning oson va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishini ta’minlaydi.

Ilmiylik tamoyili. Sintaktik tushunchalarni (so‘z birikmasi, gap, gapning bosh va ikkinchi darajali bo‘laklari) yosh davr xususiyatlariga mos holda ilmiy asoslangan holda, sodda va tushunarli tarzda berish.

Tizimlilik va izchillik tamoyili. Bu tamoyilga ko‘ra, sintaktik tushunchalarni savod o‘rgatish davridan boshlab bosqichma-bosqich, mantiqiy ketma-ketlikda kengaytirib borishni taqozo etadi.

Uzviylik uzluksizlik tamoyili. Bu tamoyil talabiga asosan boshlang‘ich sinflarda olingan sintaktik bilimlar yuqori sinflardagi ona tili kursi bilan uzviy bog‘liqlikda bo‘lishini ta’minlanishini nazarda tutadi.

Onglilik tamoyili. Ushbu tamoyil o‘quvchining gap tuzish qoidalarini yodlash emas, balki ularni nutqda ongli ravishda qo‘llay olish kompetensiyalarini shakllantirishni talab etadi .

Nazariyaning amaliyot bilan birligi. Mazkur tamoyil talabiga muvofiq sintaksisdan olingan nazariy bilimlarni mashqlar, matn tahlili, gaplarni sintaktik tahlil qilish va o‘z nutqida qo‘llash orqali mustahkamlanishi lozim.

*Ko‘rgazmalilik tamoyili*ni amalga oshirish - grafiklar, jadvallar va matnlardan olingan misollardan foydalanish orqali o‘qitish samaradorligi oshadi, bu esa materialni chuqurroq tushunishga yordam beradi. O‘quvchilarni muhokamalarga, loyiha va tadqiqot ishlariga jalb etishni nazarda tutadigan faollik tamoyili ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu sintaksisni ongli va amaliy bilishni shakllantiradi.

Nutqiy faoliyat tamoyili. Bu tamoyilga ko‘ra sintaktik tushunchalarni o‘rganishni alohida mavhum mavzu sifatida emas, balki jonli muloqot va matn ustida ishlash jarayoni bilan uyg‘unlashtirish kerak.

S.Yu.Bulanovaning maqolasida boshlang‘ich sinflarda sintaksisni o‘rganishga oid uslubiy yondashuvlar ko‘rib chiqiladi. Muallif ta’kidlaganidek, “Gaplarning struktur-semantik turlari va ularning xilma-xilligi ularning o‘zaro ta’siridan hosil bo‘ladigan tizimni tashkil etadi. Ushbu tizim va uning xususiyatlarini anglash boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ona tili sintaksisini o‘zlashtirishining zarur sharti hisoblanadi. Kichik maktab o‘quvchilarining sintaksis sohasidagi tahliliy va konstruktiv ko‘nikmalarini takomillashtirish uchun gap turlarini ko‘rib chiqish o‘quvchilarning gapni nafaqat mustaqil sintaktik birlik sifatida, balki muayyan nutq asarining tarkibiy qismi sifatida ham tushunishini ta’minlash maqsadida matn asosida izchil amalga oshiriladi. Matndagi gapni tahlil qilish sintaktik birlikni uch jihatdan ko‘rib chiqish imkonini beradi: strukturaviy, semantik va kommunikativ. Ushbu yondashuv boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining intuitiv tildan o‘z yozma nutqida turli xil tuzilish va semantika jumlalaridan ongli va kommunikativ jihatdan maqsadga muvofiq foydalanishga o‘tishini ta’minlaydi”[2].

Boshlang‘ich sinflar ona tili kursini o‘rganishning yetakchi insoniy tamoyili tilning barcha tomonlarini (leksikasi, fonetikasi, grammatikasi, so‘z yasalishi) o‘zaro bog‘liq holda o‘rganish hisoblanadi. Mazkur tamoyil tilni yaxlit hodisa sifatida o‘rganishni ta’minlaydi va til kishilarning aloqa vositasi ekanini o‘quvchilar tushunishlari uchun imkoniyat yaratadi. Bu tamoyil bo‘limlar

2Буланова С.Ю. Методические подходы к изучению синтаксиса русского языка / С.Ю. Буланова // Начальная школа. – 2015. -№ 2. С. 27- 30.

orasidagi mumkin bo‘lgan bog‘lanishni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Sintaktik tushunchalarni shakllantirish tamoyillariga amal qilishda ikki asosiy omil - *motivatsiya* va *qulay emotsional muhit* mavjud bo‘lgandagina, eng muvaffaqiyatli kechadi. Amaliy topshiriqlar o‘zaro hamkorlikning turli shakllarini o‘z ichiga olishi kerak: dialoglar, rolli o‘yinlar, matnlarni jamoaviy yaratish. Masalan, har bir ishtirokchi muayyan element uchun javobgar bo‘lgan guruh tarixini yozish nafaqat sintaksisni o‘zlashtirishga, balki hamkorlik, ijodkorlik va mas’uliyatni rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Boshlang‘ich ta’lim jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligi va o‘z-o‘zini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismonan sog‘lom bo‘lishga, moddiy borliq go‘zalliklarini his eta olishga, go‘zallik va nafosatdan zavqlana olish, milliy urf-odatlarni o‘zida singdirish va ardoqlash, ularga rioya qilishga o‘rgatadi.

2-§. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sintaktik tushunchalarni shakllantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish metodikasi


Gap ustida ishlash o‘quvchilarning nutqini o‘stirishda muhim ahamiyatga ega. Gap ustida ishlashning asosiy vazifasi o‘quvchilarni sintaktik jihatdan to‘g‘ri va aniq gap tuzib, tugallangan fikr bildirishga o‘rgatish hisoblanadi. Gap (grammatik jihatdan o‘zaro bog‘langan, tugallangan mazmun va tugallangan intonatsiyaga ega bo‘lgan) nutq birligi bo‘lib, aloqa maqsadiga xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun muhimi, birinchidan, gap nutq birligi ekanligidir. Shunday ekan, nutqqa oid mashqlarga qo‘yilgan talablar gap ustida ishlash mashqlariga ham taalluqlidir; ikkinchidan, gap − grammatik tomondan to‘g‘ri tuzilgan birlik, shunday ekan, gap ustida ishlash grammatika bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu

jarayonda gap qurilishi, gapda so‘zlarning bog‘lanishi va gapning turlari ustida ishlash juda muhimdir; uchinchidan, gap mazmun birligi bo‘lib, tugallangan mazmunni bildiradi. Binobarin, gapning mazmuniy asosi, mazmun ottenkalari ustida ishlash va ularning gap tuzilishiga bog‘liqligi ustida ishlash ham zarur; to‘rtinchidan, gapning intonatsiyasi katta ahamiyatga ega, shuning uchun intonatsiya ustida ishlash, intonatsiyaning mazmun bilan bog‘liqligini tushuntirish kerak.

Sintaktik mashqlar bolalarning sintaksis bo‘yicha olgan nazariy ma’lumotlarini umumlashtirish, o‘quvchilarga til birliklarining nutqda, o‘zaro muloqotdagi rolini ko‘rsatish, ularga oddiy so‘z birikma va gaplarning tuzilishini tushunishga yordam berish, so‘z birikma va gaplarni ongli ravishda tuzishga yordam beradi. Quyida sintaktik mashqlarni tizimli tashkil etish modelini tavsiya etamiz:

Bundan tashqari, mazkur mashqlar bolalarga nutqning sintaktik tuzilishini tushunishga, taklif etilgan so‘z birikma va gaplarni tahlil qilish, mustaqil gap tuzishda hamda o‘z fikrlarini gap shaklida to‘g‘ri ifoda etishga yordam beradi. Tinish belgilari vazifalariga oid mashqlar odatda sintaktik mashqlar bilan birlashtiriladi. Gapning bu xususiyatlarini bilmasdan turib, so‘zlardan gap tuzib bo‘lmaydi. Agar o‘quvchilar gapning bosh bo‘laklarini ajrata olmasalar, gap nutqning yaxlit birligi ekanini bilmaydilar. Ega va kesim gapning qurilishi va mazmunining asosini tashkil etadi.

Boshlang‘ich sinf ona tili ta’limida uzviylikni ta’minlash asosida sintaktik mashqlarning tizimli pragmatik ta’lim MODELI



Kutilayotgan natija: o‘quvchi gapning chegarasini (boshlanishi va tugashini) aniq ajrata oladi, gap bo‘laklariga to‘g‘ri savol qo‘ya oladi, o‘z fikrini turli sintaktik qurilmalar (darak, so‘roq, his-hayajon, buyruq gaplar) orqali ifodalay oladi, yozma nutqda tinish belgilarini (nuqta, so‘roq, undov) to‘g‘ri qo‘llay oladi. O‘quvchi gapning chegarasini (boshlanishi va tugashini) aniq biladi.
Gap bo‘laklariga to‘g‘ri savol qo‘ya oladi.
O‘z fikrini turli sintaktik qurilmalar (so‘roq, hissiyot gaplar) orqali ifodalay oladi.
Yozma nutqda tinish belgilarini (nuqta, so‘roq, undov) to‘g‘ri qo‘llaydi.

Hozirgi bosqichda nafaqat zamonaviy insonga zarur bo‘lgan bilimlar miqdori o‘zgardi, balki yangi narsalarni o‘rganish usullarida ham yanada katta o‘zgarishlar yuz berdi. Davlatimizda ta’lim tizimini transformatsiyalash munosabati bilan quyidagilar taklif etilmoqda: *boshqa mazmun, yondashuvlar, xulq-atvor, pedagogik mentalitet.* Ta’lim oldindan belgilangan maqsadlar va kafolatlangan natijaga ega bo‘lgan muayyan texnologik jarayonga aylanib qoladi. Endilikda faqat an’anaviy usullar bilan o‘qitish mumkin emas. Shuning uchun o‘qituvchi doimo samarali o‘qitish usullarini izlashga majbur bo‘ladi.

Bugungi kunda ushbu texnologiyalar o‘rta maktablarda keng qo‘llanilmoqda, boshlang‘ich sinflarda esa dastlabki urinishlar ko‘zga tashlanmoqda. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning hayotiy tajribasi kam bo‘lganligi sababli, keys-usullardan foydalanish boshlang‘ich ta’limda keng qo‘llanilmayapti. Ammo shuni ta’kidlash joizki, aniq vaziyat misolida o‘qitish texnologiyalari 7-10 yoshli bolalarda o‘qishga nisbatan yuqori motivatsiyani shakllantirishga imkon beradi. Muayyan vaziyatda o‘qitish texnologiyasining o‘ziga xos xususiyati kichik guruhlarda ishlash bo‘lganligi sababli, u boshlang‘ich sinf o‘quvchisining quyidagi shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish imkonini beradi. hamkorlik qobiliyati, yetakchilik hissi va guruh qarorlari uchun javobgarlik, va hatto ishbilarmonlik etikasi asoslarini shakllantirishning dastlabki bosqichlari haqida gapirish mumkin.

Keys-texnologiyalar bir vaqtning o‘zida rolli o‘yinlar, loyihalar usuli va vaziyatli tahlilni o‘zida mujassam etadi. Keys-texnologiya o‘quv jarayonida o‘quvchilarning faol pozitsiyasini hisobga olgan holda o‘quv jarayonini sezilarli darajada individuallashtirishni nazarda tutadi. Mazkur texnologiya tamoyili shundan iboratki, o‘qitishning boshida individual reja tuziladi, har bir o‘quvchi o‘quv xaritalari, qoidalar, o‘quv materialini o‘rganish bo‘yicha tavsiyalar,

o‘z-o‘zini tekshirish uchun nazorat savollari, testlar, ijodiy va amaliy topshiriqlarni o‘z ichiga olgan keys oladi.

Materialni o‘rganayotganda o‘quvchi o‘qituvchidan yordam so‘rashi mumkin. Keys-texnologiyalar ishining natijasi o‘quvchilarning taqdimot ko‘rinishidagi ishlari (boshlang‘ich maktabda) hisoblanadi.

Keyslar uchun 1-4-sinflarda quyidagi topshiriq turlari taqdim qilinishi mumkin:

1. Qayta hikoya qilish - turli manbalardan olingan materiallarni yangi formatda taqdim etish asosida mavzuni tushunishni namoyish etish: taqdimot, plakat, hikoya yaratish.

2. Rejalashtirish va loyihalash - berilgan shartlar asosida reja yoki loyiha ishlab chiqish.

3. Ijodiy topshiriq - muayyan janrdagi ijodiy ish - she’r, videorolik yaratish.

4. Baholash - muayyan nuqtai nazarni asoslash.

Turli tadqiqotlar - noyob onlayn manbalar asosida turli hodisalar, kashfiyotlar, faktlarni o‘rganish.

Keyslarni *tasniflashda* quyidagi turlar ajratiladi:

- haqiqiy hayotiy vaziyatlarni aks ettiruvchi amaliy keyslar;
- asosiy vazifasi o‘qitish bo‘lgan o‘quv keyslari;
- tadqiqot faoliyatini amalga oshirishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot keyslari.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘z faoliyatida hayotda eng ko‘p uchraydigan tipik vaziyatlarni aks ettiruvchi amaliy keyslardan foydalanishlari mumkin. Aslida keys vaziyatning amaliy, ya’ni “harakatdagi” modelini yaratadi. Bunday keyslar imkon qadar ko‘rgazmali va batafsil bo‘lishi kerak. Uning asosiy ma’nosi hayotni anglash va optimal faoliyat ko‘rsatish qobiliyatini egallashdan iborat. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun keys uning asosiy qahramonlariga hamdardlik hissini uyg‘otishi, qahramonlarning

shaxsiy holati tasvirlanishi muhim, ko‘p hollarda bu qaror qabul qilish jarayonida muhim element hisoblanadi.

Keys-texnologiyalar o‘quvchilarning o‘rganilayotgan fanga bo‘lgan qiziqishini oshirishga yordam beradi, maktab o‘quvchilarida ijtimoiy faollik, muloqotga kirishuvchanlik, tinglash va o‘z fikrini to‘g‘ri bayon etish kabi fazilatlarni rivojlantiradi. O‘qituvchining vazifasi - bolalarni yakka tartibda ham, guruh tarkibida ham o‘rgatishdan iborat:

- axborotni tahlil qilish,
- berilgan vazifani hal qilish uchun uni saralash,
- asosiy muammolarni aniqlash,
- muqobil yechim yo‘llarini yaratish va ularni baholash,
- maqbul yechimni tanlash va harakatlar dasturini shakllantirish va h.k.

Bundan tashqari, bolalar:

- muloqot qobiliyatlarini oshirish;
- taqdimot ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- samarali o‘zaro ta’sir o‘tkazish va jamoaviy qarorlar qabul qilish imkonini beradigan interaktiv ko‘nikmalarni shakllantirish;
- ekspert qobiliyatlari va ko‘nikmalarini egallash;
- vaziyat muammosini hal qilish uchun zarur bilimlarni mustaqil ravishda izlash orqali o‘rganish;
- o‘rganish motivatsiyasini o‘zgartirish.

Keys mazmuniga quyidagi talablar qo‘yiladi:

- keysda muayyan vaziyat ko‘rib chiqiladi;
- uning tavsifiga ma’lum vaqt davomida sodir bo‘lgan holatlar, faktlar, qarorlar kiritiladi;
- bu vaziyatlar murakkab muammoni ham, xususiy vazifani ham aks ettirishi mumkin.

Ta’limdagi keys paketlarining quyidagi turlari mavjud:

1. Kirish qismi (muammo, vaziyat, hodisa mavjudligi, ko‘rib chiqilayotgan predmet chegaralari haqida ma’lumot berish);

2. Mavzuga yoki muammoga oid ma’lumotlarni (bilimlarni) taqdim etish, predmetga qarab ko‘proq yoki kamroq batafsil bo‘lishi mumkin;

3. Strategik keys (noaniqlik sharoitida muhitni tahlil qilish va murakkab, shartlanmagan omillar ustunlik qiladigan muammolarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirish);

4. Tadqiqot ishi (guruh va individual loyihaga o‘xshash, muayyan vaziyat yoki muammoni tahlil qiladi, bu tahlil natijalari bayon shaklida taqdim etiladi).

5. Muayyan ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan keys (o‘rganilgan bilim va ko‘nikmalarni real vaziyatlar misolida mustahkamlaydi, qo‘llashni mashq qiladi, ko‘nikmalarning xususiyatiga qarab ko‘proq yoki kamroq batafsil, hajmli bo‘lishi mumkin).

Keysning tuzilishi:

Kompleks (modulli) keys, qoida tariqasida, katta hajmdagi (20 va undan ortiq sahifa) ma’lumotlar, birlamchi ma’lumotlar, hujjatlar namunalari, videoroliklar, kompyuter dasturlari va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Keys-illyustratsiya kichik hajmdagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi, o‘rganilayotgan mavzuni tasdiqlash va tasvirlash uchun ishlatilishi mumkin.

Keys - amaliy vazifa haqiqiy vaziyat haqidagi kichik yoki o‘rta hajmdagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi, uning asosida tinglovchilar mavzu bo‘yicha topshiriqni bajarishlari kerak.

Keys usuli bo‘yicha faoliyatni tashkil etish (yoki moderatsiya qilish) texnologiyasi: Sinf 3-5 kishidan iborat guruhlarga bo‘linadi. Har bir jamoa rahbar (moderator)ni tanlaydi. U guruhlar ishini tashkil etish, masalalarni ishtirokchilar o‘rtasida taqsimlash va yakuniy

qarorlar qabul qilish uchun mas’ul hisoblanadi. Ish tugagandan so‘ng moderator o‘z guruhining bajargan ishi natijalari haqida ma’ruza yoki xabar qiladi. Mavzu bo‘yicha ish natijalarini sarhisob qilish o‘qituvchining zimmasida qoladi.

Keys usulida o‘qitish xaritasi

O‘qituvchining harakatlari (darsdan oldin)	O‘quvchining harakatlari (darsdan oldin)
1. Keysni tanlaydi.	1. Keys va tavsiyalar ro‘yxatini oladi.
2. O‘quvchini tayyorlash uchun asosiy va yordamchi materiallarni aniqlaydi. Mashg‘ulot davomida: 1. Keysni dastlabki muhokama qilishni tashkil etadi. 2. Sinfni guruhlarga ajratadi. 3. Mashg‘ulot ssenariysini ishlab chiqadi	2. Mashg‘ulotga yakka tartibda tayyorlanadi.
3. Guruhlarda keys muhokamasiga rahbarlik qiladi, ularni qo‘shimcha ma’lumotlar bilan ta’minlaydi. Mashg‘ulot davomida: 1. Keys va muammoni tushunishni chuqurlashtiradigan savollar beradi. 2. Yechim variantlarini ishlab chiqadi, boshqalarning fikrini tinglaydi.	3. Qaror qabul qiladi yoki qaror qabul qilishda ishtirok etadi.
Darsdan so‘ng: 1. O‘quvchilarning ishini baholaydi. 2. Qabul qilingan qarorlar yoki berilgan savollarni baholaydi.	

Boshlang‘ich sinflarda sintaktik tushunchalarni shakllantirishning innovatsion usullari interaktiv modellashtirish, lingvistik eksperiment, vizuallashtirish texnologiyalari (tayanch sxemalar, aql xaritalari) va muammoli-dialogik ta’limni o‘z ichiga oladi. Bu yondashuvlar sinflar bo‘yicha gap tuzilishi bilan boshlang‘ich tanishuvdan ongli sintaktik tahlilgacha rivojlantiriladi.

Keys-stady metodi: O‘qituvchi sintaktik me’yorlar buzilgan deformatsiyalangan matnni taklif etadi. Guruhlar xatolarni topadi, ularni asoslaydi va variantni tuzatadi.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarida *keys-stadi* (vaziyatli tahlil) usuli haqiqiy yoki modellashtirilgan nutq vaziyatlarini tahlil qilish orqali sintaktik tushunchalarni o‘zlashtirishga yordam beradi. O‘quvchilar matnni tahlil qiladilar, muammoni aniqlaydilar, uni guruhda muhokama qiladilar va gap yoki so‘z birikmasining tuzilishi haqidagi qoidani o‘zlari keltirib chiqaradilar. (1-ilovaga qarang).

“Vergulni qayerga qo‘yish kerak?” mavzusidagi keys:

Muammoli vaziyat. O‘quvchilarga uyushiq bo‘lakli gaplar asosida muammoli vaziyat taklif etiladi. Bunda badiiy matndan olingan parchada gaplarda qatnashgan uyushiq bo‘laklar orasidagi vergullar olib tashlanadi. O‘quvchilar vergulni kerakli joyga qo‘yib chiqichlari kerak.

“Gapning uyushiq bo‘laklari” mavzusini o‘rganishda Shukur Sa’dulla “Qovun sayli” asari matnidan foydalanish mumkin:

Gohida kichik hidli handalakchalar olib kelardi. Handalakchalar koptokka o‘xshash bejirim serto‘r edi. Men Hasan Husan Fotima Zuhralar mashinaga chiqib oldik. Uzun-uzun pushtalarda katta-katta olachipor tarvuzlar dumalab yotibdi. Chaylada yangi uzilgan umrboqi, ko‘kalapish, doniyor qovunlar qo‘zivoy tarvuzlar dumalab yotibdi.

Yechim izlash: O‘quvchilar faktlarni taqqoslaydilar va sintaktik hodisani tushuntirish uchun o‘z variantlarini taklif qiladilar.

(Tekshirish uchun namuna: 1. Gohida *kichik, hidli* handalakchalar olib kelardi. 2.Handalakchalar koptokka o‘xshash *bejirim, serto‘r* edi.3. *Men, Hasan, Husan, Fotima, Zuhralar* mashinaga chiqib oldik. 4. Uzun-uzun pushtalarda *katta-katta, olachipor* tarvuzlar dumalab yotibdi. 5. Chaylada yangi uzilgan *umbrboqi, ko‘kalapish, doniyor qovunlar, qo‘zivoy* tarvuzlar dumalab yotibdi.**)**

Tahlil. Har bir gapda qaysi bo‘lak uyushganini aniqlab izohlash.

Uyushgan bo‘lakli gaplar	Uyushgan bo‘lak turi
*Gohida **kichik**, **hidli** handalakchalar olib kelardi.*	
*Handalakchalar koptokka o‘xshash **bejirim, serto‘r** edi.*	
***Men, Hasan, Husan, Fotima, Zuhralar** mashinaga chiqib oldik.*	
*Uzun-uzun pushtalarda **katta-katta, olachipor** tarvuzlar dumalab yotibdi.*	
*Chaylada yangi uzilgan **umrboqi, ko‘kalapish, doniyor qovunlar, qo‘zivoy tarvuzlar** dumalab yotibdi.*	

Xulosa: o‘quvchi matndagi uyushiq bo‘lakli gaplarda tinish belgilarining qo‘llanishini izlanish asosida mustaqil bilib olishadi.

Shunday qilib, keys-texnologiya - bu haqiqiy yoki xayoliy vaziyatlar asosida o‘qitishning interaktiv texnologiyasi bo‘lib, u bilimlarni o‘zlashtirishga emas, balki o‘quvchilarda yangi fazilatlar va ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Juda muhim bosqich - bu “muvaffaqiyat holatini” yaratishdir. Har bir o‘quvchi ma’lum bir bosqichda (o‘ziga qulay bo‘lgan) masalani yakka tartibda yechadi va hech qanday qiyinchilikka duch kelmaydi. Natijada bolalarning o‘z natijalaridan hissiy jihatdan qoniqish hosil qilishiga erishiladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf ona tili darslarida sintaktik tushunchalarni shakllantirishda keys-stady metodidan

foydalanish, o‘quvchilarning umumiy intellektual va kommunikativ salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, pedagogik jarayonning eng muhim tarkibiy qismi o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi shaxsga yo‘naltirilgan o‘zaro ta’sir bo‘lishi kerak, bu yerda o‘qituvchilar va o‘quvchilarning qulay psixologik farovonligi ta’minlanadi, darslarda va o‘quv faoliyati davomida ziddiyatli vaziyatlarning keskin pasayishi, umumiy madaniy tayyorgarlik darajasini oshirish uchun qulay muhit va shart-sharoitlar yaratiladi.

3-§. O‘quvchilarda sintaktik tushunchalarni shakllantirishda STEAM texnologiyalar tatbiqi

Boshlang‘ich ta’lim umumiy ta’limning birinchi bosqichidir. Aynan u bilim, ko‘nikma, malaka va asosiy kompetensiyalar bazasini shakllantiradi, keyingi ta’lim shu asosda quriladi. Hozirgi zamonaviy muhitda ta’lim olayotgan o‘quvchilar axborotni muvaffaqiyatli idrok etish, to‘plash va qayta ishlash uchun ona tilini mukammal bilish zarur. Shuning uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish ta’lim sifatini oshirishda asosiy vazifaga aylanadi.

